

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KOMMUNIKATIV YONDASHUVGA ASOSLANGAN O'QITISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI (ONA TILI DARSLARI MISOLIDA)

Xoliqova Matluba Mardon qizi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası assistenti

[xoliqovamatluba5@gmail.com](mailto:xoliqovamatluba5@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq mahoratini kommunikativ yondashuv orqali o'stirishga qaratilgan bir necha usullarning tahlili keltirilgan. Bundan tashqari muloqot ko'nikmalarining qanday usullarda o'rgatilishi, muloqot qobiliyatini oshirish bilan bog'liq vazifalar bo'yicha ham alohida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, kommunikativ yondashuv, axborot texnologiyalari, nutq.

### Annotation

This article presents an analysis of several methods aimed at improving the speaking skills of elementary school students through a communicative approach. In addition, the methods of teaching communication skills and the tasks related to improving communication skills were also discussed.

**Keywords:** primary education, communicative approach, information technology, speech.

### Аннотация:

В данной статье представлен анализ нескольких методов, направленных на совершенствование разговорных навыков учащихся младших классов посредством коммуникативного подхода. Кроме того, были обсуждены методы обучения коммуникативным навыкам и задачи, связанные с улучшением коммуникативных навыков.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

**Ключевые слова:** начальное образование, коммуникативный подход, информационные технологии, речь.

Mustaqillik yillari tom ma'noda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamli ishlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda, jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo'nalishi mustaqil fikr yurita oladigan, kasbiy kompetensiyalarga ega raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Shu bois, jamiyat va shaxs manfaatlarini uchun zarur bo'ladigan rivojlanish istiqbollari aniq belgilash borasida "Ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish" ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda [1].

Bu esa umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash jarayonini modernizatsiyalash va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Boshlang'ich ta'lim tizimini modernizatsiyalashda axborot texnologiyalari yutuqlarini keng joriy qilish ham asosiy omil hisoblanadi. Bunda ta'lim sifati ortadi. Axborot texnologiyalari yutuqlari ayni vaqtda o'quvchilarni zamonaviy madaniyatga oshno qilish sifati bo'lib xizmat qiladi, axborotlashgan jamiyat sharoitida bu alohida dolzarblik kasb qiladi.

Yondashuv bu o'qitish va o'rganishga qarashning bir usuli. Har qanday tilni o'rgatish yondashuvi asosida til nima ekanligini va uni qanday o'rganish mumkinligi to'g'risida nazariy qarash mavjud. Yondashuv o'quvchilarni o'rganishga yordam beradigan sinf mashg'ulotlari yoki metodlaridan foydalanadigan usullarni, biror narsani o'rgatish usulini keltirib chiqaradi. Kommunikativ yondashuv bu tilni o'qitishning eng taniqli hozirgi yondashuvi. Vazifalar asosida o'qitish bu u bilan bog'liq bo'lgan metodologiya. Boshqa yondashuvlarga kognitiv-kodli yondashuv va og'zaki-og'zaki yondashuv (audiolingual usul) kiradi.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Kommunikativ yondashuv hozirgi vaqtda butun dunyoda keng tarqalgan yondashuvlardan biri. Uning asosiy maqsadi tilda erkin muloqot qilishga, muloqotning turli vaziyatlarida o'zini adekvat tutishga o'rgatishdir. Ya'ni, bu yondashuvda asosiy narsa muloqot paytida o'zaro ta'sir va kommunikativ maqsadga erishishdir. Ma'lum bo'lishicha, biz har qanday til hodisasini faqat bilish uchun emas, balki nutqda qo'llay olish uchun ham o'rganamiz [2].

Ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarga til haqida ma'lum bilimlar to'plamini berish emas, balki ularni muloqot qilish uchun tildan foydalanishga o'rgatishdir. Tinglash va gapirish asosiy ko'nikmalar hisoblanadi. Chunki ular nutq jarayonida fikr almashishga va fikrni yetkazib berishda qo'llaniladi. Ona tilida bolalar juda tabiiy holda tinglashadi va gapirishadi. Chunki atrofdagi insonlar ular bilan o'zlarining ona tilida muloqot qilishni ma'qul ko'rishadi. Ammo ikkinchi tilda muloqot qilishga kelganda, ular fikrlarini bayon etishga qiynalishadi. Bunday muammolar, albatta, ikkinchi tilda kam muloqot mahorati shakllanganligidan darak beradi.

Kelajak yoshlarimiz qiziqishlarini to'g'ri yo'naltirish va amaliyotga moslashtirish har bir pedagogning oldidagi mas'uliyatli vazifadir. Bilim beramiz, o'quvchi test ishlay oladi va nazariy savollarga ham javob beradi, ammo amaliy bajarib berishga kelganida hatto, texnik qoidalarini ham nazariy bayon etadi, amaliy bajara olmasligi isbotlangan. Ayniqsa, ona tili darsligidagi keyingi yillar bir qancha tanqidga uchrab to'g'irlanib borilayotgan kamchiliklar o'quvchining chalg'ishiga olib kelmoqda [3]. Hozirgi davrda ona tili fani bo'yicha o'quv dastur va rejalarni yangilash, o'qitishni sifat va mazmun jihatdan yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kommunikativ yondashuvga ko'ra, nutq muayyan nutqiy maqsadni ro'yobga chiqarish, kimgadir axborot berib, kimdandir axborot olish, kim bilandir fikr almashish asosida harakatga keltiriladi. Buning uchun yoshlar nutq o'stirish mashqlari mobaynida muloqot madaniyatini o'zlashtirishlari, suhbatdoshiga ta'sir ko'rsatish layoqatini egallashlari lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqot madaniyatini shakllantirishda o'qituvchining roli katta. Muloqot ta'lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada, mahallada, jamoada va guruhda. Agar oilada kattalar bir birlariga qo'pol munosabatda bo'lsalar, bola ham ularga taqlid qilib atrofdagilar bilan nizolarga borishi mumkin. O'qituvchi muloqot madaniyati asosida faoliyat olib borgan taqdirda ham, o'quvchilar jamoasi orasida turli tushunmovchiliklar,



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

ziddiyatlar paydo bo'lishi tabiiy hol. Har qanday tajribali o'qituvchining pedagogik muloqoti jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keladi. O'quvchilar jamoasida sodir bo'ladigan har qanday pedagogik vaziyatga javobgar shaxs o'qituvchidir. Bu barcha davrlar pedagogik faoliyatida namoyon bo'ladigan tipik hodisa [4].

Pedagogik muloqot usullari ustida ishlashning asoslangan tizimini tuzish uchun har bir pedagog o'zining muammolaridan, yo'l qo'yilgan kamchiliklaridan kelib chiqqan holda, qiyinchiliklarni tahlil qilish bilan bartaraf etishi lozim. Bunda, o'qituvchi o'quvchilar bilan muloqot jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etishi kerak. Avvalo, o'z iqtidoriga, pedagogik mahoratiga tayanishi kerak. Pedagogik muloqot asosida erishiladigan yutuqlar o'qituvchining ijodiy mehnati mahsulidir.

Ta'kidlash joizki, o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'quvchilar bilan olib boradigan muloqoti muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu pedagogik muloqotning butun tizimida uning ma'naviy mazmundorligini oshirishni talab etadi, zero aynan pedagogik muloqot, ta'lim-tarbiyaning ma'naviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Ijtimoiy, psixologik, tarbiyaviy va ma'naviy vazifalarning murakkabligi o'qituvchining kommunikativ faoliyatiga yuksak talablarni qo'yadi. Jonli muloqot o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta'lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og'zaki so'z bilan o'quvchilarga yetkazadigan, ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo'lgan faoliyatdir [5].

Kishilar muloqotga kirishar ekan, savol berish, buyruq, iltimos qilish, biror narsani tushuntirish bilan birga, o'z oldiga boshqalarga ta'sir etish, shu narsani ularga tushuntirish maqsadini qo'yadi. Bunda muloqot shaxslararo o'zaro ta'sir sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni kishilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi aloqa va o'zaro ta'sirlar yig'indisidir.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda maktablarda ona tili fanining chuqurlashtirib o'tilishini, sifatli dars mashg'ulotlari olib borilishini, fanlararo bog'lanishlarni kengroq ta'minlashga alohida ahamiyat berilishini talab etmoqda. Shunday ekan, maktablarda o'quvchi-yoshlar qiziqishi, fanga moyilligi asosiy masaladir.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz//docs/5841063>.
2. Saidova Mukhayyo Umedilloevna, Associate Professor of English Linguistics Department, PhD Bukhara State University (Uzbekistan) [m.u.saidova@buxdu.uz](mailto:m.u.saidova@buxdu.uz) Boboeva Zarina Rajab qizi, Master Degree Student, Bukhara State University (Uzbekistan) [z.r.boboyeva@buxdu.uz](mailto:z.r.boboyeva@buxdu.uz). integration of pragmalinguistics, functional translation studies and language teaching processes International Scientific Conference February 22-23, 2023333. Kommunikativ yondashuv orqali nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish.
3. Rasulova Feruzaxon Turdiqulovna. Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani 83-maktab Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi. Ona tili darslarini tashkil etishda kommunikativ yondashuv. Ustozlar uchun [www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz). 44-son 5–to‘plam may 2023. B. 257.
4. Xoliqova M.M. Canada international scientific online conference. Innovative developments and research in education. 2024 year. 23 june. 462 page.
5. Umumiy pedagogika. Toshkent 2018. B. 450-452.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E-CONFERENCE  
SERIES